





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil uchun Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 90 522,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yil bilan taqqoslaganda 6,6 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023-yil narxlariga nisbatan 109,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,2 % ga yetdi.

2024-yil uchun Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2023-2024- yillar uchun Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2023-yil	2024-yil	
I. YAHM, jami	77 337,9	90 522,1	106,6
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	74 769,1	87 014,4	106,6
mahsulotlarga sof soliqlar	2 568,8	3 507,7	106,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	74 769,1	87 014,4	106,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24 863,1	26 942,4	103,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25 016,2	30 132,7	107,9
sanoat	20 775,4	25 030,3	107,3
qurilish	4 240,8	5 102,4	111,0
xizmatlar	24 889,8	29 939,3	108,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9 077,1	11 159,2	111,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 624,5	4 581,0	116,0
boshqa xizmat tarmoqlari	12 188,2	14 199,1	104,4



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 409,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,4 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



**2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi**
(jamiqa nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	96,1
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	3,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	33,3	31,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	33,5	34,7
sanoat	27,8	28,8
qurilish	5,7	5,9
xizmatlar	33,2	34,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12,1	12,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	5,3
boshqa xizmat tarmoqlari	16,3	16,2

2024-yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 31,0 % ni, sanoat tarmog‘i 28,8 % ni, qurilish 5,9 % ni va xizmatlar sohasi 34,3 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil

3,3 %



33,3%

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

27,8%

Sanoat

5,7%

Qurilish

33,2%

Xizmatlar

2024- yil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

31,0%

Sanoat

28,8%

Qurilish

5,9 %

Xizmatlar

34,3 %

3,9 %




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i – 1,0 f.p. (2023-yilda – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,0 f.p., (2023-yilda – 1,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023-yilda – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,8 f.p. (2023-yilda – 1,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023-yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydai.

2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024-yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 31,0 %), sanoatda – 107,3 % (28,8 %), qurilishda – 111,0 % (5,9 %), xizmatlar sohasida – 108,6 % ni (34,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,3 % (12,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,0 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,4 % dan (16,2 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024-yilda YAHM deflyatori indeksi 2023-yildagi narxlarga nisbatan 109,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 112,3 % va xizmatlarda – 110,8 % qayd etildi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024-yil uchun kichik tadbirkorlik 60 472,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023-yilda – 51 255,5 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 69,5 % ni (2023-yilda – 68,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2023- yil

51 255,5

68,6 %

2024- yil

60 472,3

69,5 %

